

## “XITOIY ISLOHOTINING OTASI” MAO SZEDUN

**Boxodirov Alisher Kambarbek o'g'li***Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti**70220301-Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) 2 kurs magistranti*

**Anotatsiya:** Ushbu maqola Xitoyda 1949- yil 1- oktyabr kuni Xitoy xalq respublikasi elon qilingandan so'ng Xitoyda olib borilgan islohotlar haqida. Maqolada Xitoydagi islohot jarayonining qiyinchiliklari va qarama-qarshiliklari haqida so'z boradi. 1949 yildagi Xitoy inqilobi. Bu Xitoy Kommunistik inqilobi deb ham nomlangan, bu 1927 yilda boshlangan fuqarolar urushining so'nggi bosqichi edi. Ushbu to'qnashuvda Mao szedun boshchiligidagi KPK kommunistlari va Gomintang millatchilari Chjan Kay-she boshchiligida to'qnashdilar. Inqilobga olib kelgan fuqarolar urushining sabablari imperatorlik davrining oxiriga borib taqaladi: iqtisodiy tengsizlik juda katta edi, ayniqsa qishloq joylarida, mustamlakachilik va hududlarni yo'qotish oqibatlarini ulkan notinchlikni keltirib chiqardi. Bunga mamlakatda kommunistik g'oyalarning kirib borishi qo'shilishi kerak. Ikkinchi Jahon urushi sharoitida Yaponiya bosqiniga qarshi kurashish uchun ikkala tomon ham sakkiz yil davomida birlashdilar. Oxir-oqibat, ular o'rtasidagi qarama-qarshilik qayta tiklandi. Yakuniy g'alaba 1949 yil oktyabrda Xitoy Xalq Respublikasini tashkil etgan kommunistlarga tegishli edi. Mao Tszedun tomonidan amalga oshirilgan kommunistik tizim, avvalo, iqtisodiy sohada muvaffaqiyatsizlikka uchragan edi, chunki bu katta ocharchilikni keltirib chiqardi. Vaqt o'tishi bilan, mamlakat XXI asrning boshlarida yirik jahon kuchlaridan biriga aylanganiga qadar kuchayib bordi. Xitoy va chet elshunoslik fanlari tahlili asosida bu davrda Xitoyda o'rta ta'lim islohotiga ta'sir ko'rsatgan omillar aniqlandi. Xitoyning o'rta ta'limni tashkil etish yo'lidagi birinchi qadami o'quv dasturlari, ta'lim dasturlari va boshqalar kabi ta'lim hujjatlarini tayyorlash edi. Har tomonlama rivojlantirish g'oyalari amalga oshirish tasvirlangan, shuningdek, Sovet tajribasiga murojaat. Keyingi bosqich o'rta maktablar uchun darsliklar yaratish bo'ldi. 1956 yildan boshlab Xitoy o'rta maktabida amaliyot yo'nalishi mavjud. O'qitish qishloq xo'jaligi va sanoatga oid materiallarni o'rganishga qaratilgan. Xitoy o'rta maktabini takomillashtirishda "Buyuk sakrash" siyosati va keyinchalik iqtisodiyotni tartibga solishning o'rni qayd etilgan. 1958 yilda o'quv dasturiga umumli mehnat kiritildi. Ikki bosqichli ta'lim tizimiga o'tish e'lon qilindi, unga oddiy maktablar va sirtqi maktablar kiradi. Turli fanlar bo'yicha ta'lim mazmunidagi o'zgarishlarga misollar keltiriladi. Mafkuraviy va mehnat tarbiyasi bilan bog'liq islohotlarning mohiyati ochib berildi. 1961 yilda o'quv mashg'ulotlariga ko'proq vaqt ajratildi. Biroq 1963 yilga kelib, ustuvorliklar o'zgarib, Xitoyning o'rta ta'lim tizimida mafkuraviy tayyorgarlik va ish muhim ro'l o'ynay boshladi. Unuman olganda, ko'rib chiqilayotgan davrda o'rta ta'limni isloh qilishning o'ziga xos xususiyati ta'limga oid ijtimoiy-siyosiy qarashlarni hisobga olish va ta'lim mazmunini yangilash o'rtasidagi mutanosiblikni izlashdir. Hamda maqola Xitoydagi bo'lib o'tgan "Katta sakrash"lar haqida ham ma'lumotlarni uzida mujassam etadi. 1958-1960-yillarda Xitoyda olib borilgan "katta sakrash" siyosati samarasiz tugadi. Bu siyosat natijasida davlat sanoat qishloq xo'jaligi chuqur inqirozga yuz tutdi, davlat bo'ylab 20-40 million aholining ochlikdan vafot etishiga olib keldi. Partiyada pragmatiklar inqirozdan chiqish uchun keskin va tez chora tadbirlar ko'rilishini talab qildi.

*Ularga Lyu Shaosi boshchilik qilar edi va uni bu davrda qo'shinda ham partiyada qo'llab-quvvatlashar edi. Jou Enlai hukumat rahbari sifatida partiya ichidagi qarama-qarshiliklarni bostirishga, ularni kelishuvga chaqirishga urinar edi.*

**Annotation:** *This article is about the reforms that took place in China after the proclamation of the People's Republic of China on October 1, 1949. The article deals with the difficulties and contradictions of the reform process in China. The Chinese Revolution of 1949 was also called the Chinese Communist Revolution, it was the final stage of the civil war that began in 1927. In this conflict, the CCP Communists led by Mao Zedong clashed with the Kuomintang Nationalists led by Zhang Kai-she. .The causes of the civil war that led to the revolution go back to the end of the imperial period: economic inequality was great, especially in rural areas, and the consequences of colonization and loss of territory caused great unrest. To this must be added the penetration of communist ideas in the country. During World War II, both sides joined forces to fight the Japanese invasion for eight years. Eventually, the confrontation between them resumed. The final victory belonged to the Communists, who established the People's Republic of China in October 1949. The communist system implemented by Mao Zedong was primarily a failure in the economic sphere as it caused massive famine. Over time, the country grew stronger until it became one of the major world powers at the beginning of the 21st century. An analysis of Chinese and foreign studies revealed the factors that influenced the reform of China's secondary education during this period. The first step in China's path to the organization of secondary education was the preparation of educational documents, such as curricula, curricula, etc. The implementation of the ideas of integrated development is described, as well as a reference to the Soviet experience. The next step was the creation of textbooks for universities. Since 1956, he has been an intern at a Chinese high school. The training is focused on the study of agricultural and industrial materials. The role of the "Great Leap Forward" and the subsequent economic regulation in improving the Chinese high school was noted. In 1958 productive work was introduced into the curriculum. A transition to a two-tier education system has been announced, including regular and correspondence schools. Examples of changes in the content of education in different disciplines are given. The essence of the reforms connected with ideological and labor education is revealed. In 1961, more time was devoted to training. By 1963, however, priorities had changed, and ideological training and work began to play an important role in China's secondary education system. In general, a distinctive feature of the reform of secondary education in the period under review is the search for a balance between taking into account socio-political views on education and updating the content of education. The article also looks at the Great Leap Forward in China. The "Great Leap Forward" policy pursued in China in 1958-1960 ended in vain. As a result of this policy, the industrial agriculture of the state was in a deep crisis, leading to the death of 20-40 million people throughout the state from starvation. Pragmatists in the party demanded decisive and urgent measures to overcome the crisis. They were led by Liu Shao, who at that time was supported both in the army and in the party. As prime minister, Joe Enlai sought to quell internal party tensions and call for compromise.*

**Kalit so'zlar:** *Mao Szedun hayoti, Mao Szedun asarlari, madaniy inqilob, katta sakrash, XXR, XKP, 1975 yilda yangi Konstitutsiya qabul qilinishi, «Mayli, yuzlab gullar yashnasin» xarakatining tashabbuskori Mao Szedun, «To`rtlik» ishi, Mao Szedun o`limi.*

**Keywords:** *Mao Zedong's life, Mao Zedong's works, Cultural Revolution, Great Leap Forward, PRC, CCP, Adaption of the new Constitution in 1975, Mao Zedong, the initiator of the "Let Hundreds of Flowers Bloom" movement, "Quarterly" work, Death of Mao Szedun.*

Xitoyning davlat va siyosat arbobi. Xunan viloyati Syantan uezdi Shaoshan kishlogida dexqon oilasida dunyoga kelgan. Bolaligida xususiy maktabga qatnagan. 1910 yili Syansyan uezdidagi ikkinchi bosqich Dunshan boshlangich maktabiga kirdi, keyin esa, kelgusi yil baxorda Xunan viloyati poytaxti Chansha shaxridagi Syansyan o`rta maktabida o`qiy boshladi. 1913 yili Mao Szedun Xunan to`rtinchi viloyat pedagogika bilim yurtiga imtixon topshirdi va 1918 yili uni tamomladi. XX asrning eng zolim xukmdorlaridan biri bo`lgan Mao szedun K.Marks, F.Engels, V.Le- nindan iborat klassik uchlik bilan bir qatorda marksistik siyosiy ongning ustunlaridan biri hisoblangan. Xitoy kommunistik partiyasi va Xitoy Xalq Respublikasining (1949) asoschilaridan biri bo`lgan Mao Szedunni shafqatsizlik, maqsadga intilishda qat`iyat ajratib turardi. Yoshligida Mao Szedun o`sha vaqtlari «eski bilim» deb atalgan Xitoy feodal madaniyatining, g`arb burjua demokratiyasining madaniyati – «yangi bilim»ning kadriyatlarini o`rg`andi. Konfutsiy, Kay Yuvey, Lyan sichao, Sun Yatsen, L. Tolstoy va N. Kropotkinning, shuningdek, neokantchilar va neogegelchilarning asarlari u yoki bu darajada unta ta`sir ko`rsatgan va dunyoqarashining shakllanishiga ko`maklashgan. 1918 yilning aprelida say Xesen va boshqalar bilan birga u Chanshada, Xitoyni o`zgartirishning yangi yo`llari va uslublarini izlash maqsadida «Yangi xalk» jamiyatini tuzdi. Jamiyat tuzilgandan keyin tez orada Mao szedun «ish va o`qish» dasturi doirasida ilg`or g`oyalarni va inqilobiy tajribani o`rganish uchun Fransiyaga borishga jamiyat a`zolaridan va boshqa ilg`or yoshlardan gurux tuzdi. O`kishni 1911 yilgi inqilob bo`lib qo`ydi. Sun Yatsen boshchiligidagi qo`shinlar manchjurlarning sin sulolasini ag`dardi. Mao otryadda aloqdchi vazifasini bajarib, yarim yil armiyada xizmat qildi. 1912-1913 yillari qarindoshlarining talabiga ko`ra uning tijorat maktabida o`qishiga to`g`ri keldi. 1913 yildan 1918 yilgacha Mao ma`muriy markaz - Chanshada yashadi, o`sha yerdagi pedagogika bilim yurtida o`qidi. Bir yilga (1918– 1919) Pekinga ketdi, u yerda Pekin universitetining kutubxonasida ishladi. 1919 yilga borib u ko`zga ko`ringan siyosiy arbob obro`siga ega bo`ldi. Shu yilning o`zida birinchi marta marksizm bilan tanishdi va bu ta`limotning otashin muxlisi bo`lib keldi. Bir oz keyinrok, u o`ziga Chan Kay- shining e`tiborini qaratdi va Gomindanning tashviqot bo`limi boshligi bo`ldi. Chan bilan siyosiy kelishmovchiliklar paydo bo`ldi va 1925 yilning mayida Maoni vazifasidan bo`shatdilar. U XKP ning eng sul qanotiga mansub bo`lgan devonlar xarakati rahbarlarini tayyorlovchi kurslarning xodimi bo`ldi. Biroq, 1927 yilning aprelida Chan Kayshi XKP bilan ittifoqni uzdi va o`zining «Shimolga yurishi»da XKP a`zolaridan aloxida ravishda o`zi inqilobiy armiya tuzdi, uni 8–19 sentabrda «Kuzgi» qo`zg`oloni paytida boshqardi. Qo`zg`olon muvaffaqiyatsizlikka uchradi va Mao XKP raxbarligidan haydaldi. Bunga javoban u o`ziga sodik, bo`lgan kuchlarni to`pladi va XKPdan kuvilgan yana bir raxbar Chju De bilan birlashib, tog`larga chekindi. U yerda 1928 Yili «Onma tomon yo`l» nomi bilan armiya tuzdi. Mao va Chju birgalikda Xunan va szyansi provinsiyalari chegaralaridagi szingan

tog`larida o`zlarining sovet respublikalarini tashkil qildilar. 1934 yilga kelib uning o`n besh million axolisi bor edi. 1924 yildan 1934 yilga qadar ular partizanlik usulini qo`llab, Gomindanning Sovetlarni yo`q qilishga qaratilgan to`rtta xujumini muvaffaqiyat bilan qaytardilar. 1930 Yili gomindanchilar Maoning xotini Yan Kayxayni qatl qildilar. 1934 yili zsingandagi Sovetlarga beshinchi xujumdan keyin Mao ning 86 000 erkak va ayol bilan bu xududni tark etishiga to`gri keldi. Mao ko`shinlarining zsingandan bu ommaviy yurishi Shansi viloyatida yakunlanib, taxminan 12 000 kilometrlik mashxur «Buyuk yurish»ga aylanib ketdi. 1935 yilning oktabrida Mao o`zining bor-yo`gi 4000 kishilik tarafdorlari bilan partiyaning yangi shtab kvartirasini tuzdi. Bu davrda Xitoyga yaponlarning bostirib kirishi XKP va Gomindanni birlashishga majbur qildi va 1936 yilning dekabrda Mao Chan Kayshi bilan yarashdi. Mao 1940 yil 20 avgustdan 30 noyabrga qadar yaponlarga qarshi, «Yuz polkning xujumi» nomi bilan ma`lum bo`lgan operatsiyani qo`lladi, biroq, boshqa tomondan yaponlarga qarshi operatsiyalarda kamroq, faollik ko`rsatdi, butun e`tiborini XKPning Shimoliy Xitoydagi pozitsiyasini va o`zining partiyadagi raxbarlik xolatini mustaxkamlashga qaratdi. 1940 yilning martida u XKP MK Siyosiy byurosi Raisi etib saylandi. Urush tugashi bilan XKP va Gomindan o`rtasidagi nochorgina yarashuv Xam barxam fuqarolar urushi boshlanib ketdi. 1946 – 1949 yillarda Maoning qo`shinlari Chan Kayshi armiyasini birin-ketin mag`lubiyatga uchratdi, oxir-oqibatda esa ularni Tayvanga , qochishga majbur qildi. 1949 yilning oxirida Mao va uning kommunist tarafdorlari, qit`ada Xitoy Xalq, Respublikasini e`lon kildilar. Chan Kayshini va millatchi Xitoyni qo`llab-quvvatlagan Qo`shma Shtatlar Maoning ular bilan diplomatik munosabatlar o`rnatishga bo`lgan urinishlarini rad etdi, bu bilan uni Stalin bilan xamkorlikka undadi. 1949 yil Mao SSSRga keldi. Premer Chjou Enlay Stalin bilan muzokaralar olib bordi va 1950 yilning fevralida Xitoyga qaytishi oldidan Dastlik, hamkorlik va o`zaro yordam haqidagi shartnomaga imzo chekdi. 1957 yili Mao shiori «Mayli, yuzlab gullar yashnasin, mayli, turli dunyoqarashlarning minglab maktablari rakrbat qilsinlar» so`zlari bo`lgan «Mayli, yuzlab gullar yashnasin» xarakterining tashabbuskori bo`ldi. U ijod axli tomonidan partiyaning, uning siyosiy raxbarlik xamda boshqaruvchilik uslublarining xURXmasdan tanqid qilinishini ma`kullardi. Avvaldan shunday o`ylab qo`yilgan bo`lganmi yoki shunchaki tanqidning dushmanona oxangidan qo`rqqanidanmi, tez orada Mao kuchayib borayotgan «Yuzta gul» xarakterini boshqacha fikrlovchilarga tomon burib yubordi va o`z vaxtida Stalin kabi o`z shaxsiga sig`inishni yaratishga kirishdi. Shuning bilan bir vaqtda Mao dehqonlarga qarshi zarbani yangidan boshladi, ularni xususiy mulkni to`liq yo`q qilishga, tovar ishlab chiqarishni yo`qotishga va xalq kommunalari tuzishga chaqirdi. U maqsadi butun mamlakat miqyosida sanoatlashtirishni tezlashtirish bo`lgan «Katta sakrash» dasturini nashr ettirdi. Partiya s`ezdlarida «Uch yil qattiq mexnat va o`n ming yil roxat qilish» yoki «o`n besh yilda Angliyani eng muxim sanoat maxsulotlari xajmi bo`yicha quvib yetish va undan o`zib ketish» singari Xitoydagi ishlarning real holatiga mos kelmaydigan va ob`ektiv iqtisodiy qonunlarga suyanmaydigan shiorlar olg`a surilardi. 1958 yilning ohiriga keliboq «Katta sakrash» va «Qishloqni kommunalashtirish» siyosati boshi berk ko`chaga kirib qolganligining belgilari paydo bo`la boshladi. Shunga qaramasdan, Mao o`jarlik bilan belgilangan yo`lni davom ettirardi. «Katta sakrash»ning yanglishishlari va xatolari XXR xalq xo`jaligidagi og`ir axvolning sababchisi bo`ldi. Sanoatda jiddiy nomutanosiblik paydo bo`ldi, inflyatsiya kuchaydi, xalqning xayot darajasi keskin pasaydi. Qishloq xo`jalik va sanoat maxsulotlari

Xajmi keskin qisqara boshladi. Mamlakatda don yetishmas edi. Buning barchasi ma'muriy xo'jalik va yomon tabiiy sharoitlar bilan birlashib umumxalq ochligini keltirib chiqardi. «Katta sakrash» siyosati faqat xalqning qarshiligigagina emas, XKPning ko'zga ko'ringan arboblari Pen Dexuaya, Chjan Ventan va boshqalar tomonidan keskin tanqidga xam uchradi. Mao o'zidan davlat boshlig'i vazifasini sohit qildi va Lyu Shaotsi uning o'rnini egalladi. 1950 yillarning oxiri 1960 yillarning boshlarida Mao o'ziga yolg'izlikda va xotirjamlikda yashashni lozim ko'rdi, lekin mutlaq faoliyatsizlikni emas 1960 yillarning o'rtalarida u ijtimoiy faoliyatga qo'ydi va Lyu Shaotsiga puxta tayyorlangan xujum uyushtirdi. Kurashning asosi Mao taklif qilgan «buyuk proletar madaniy inqilob» bo'ldi. «Madaniy inqilob»ning birinchi bosqichi 1966 yildan 1969 yilgacha davom etdi. Bu inqilobning eng faol va vayron qiluvchi bosqichi bo'ldi. Xarakatning boshlanishi uchun sabab 1965 yil no'yabrda chop etilgan Yao Venyunning «Xay Juyning mansabdan tushirilishi» tarixiy dramasi yangi taxriri haqidagi makrlasi bo'ldi. Pesa 1960 yili mashhur Xitoy tarixchisi, Pekin xrqimining o'rinbosari U. Xan tomonidan yozilgandi. U o'z dramasida o'rtasrlardagi Xitoy hayotidan bir ko'rinishni tasvirlayotganida go'yoki 1959 yili XXRdagi «Katta sakrash»ga va xalk, kommunalariga salbiy baxo bergan XXRning sobiq, mudofa vaziri Pen Dexuaning quvg'in qilinishi va mansabidan ozod etilishi adolatsizlik ekanligiga shama qilganlikda ayblangan edi. Pesa makrlada «antisotsialistik zaxdrli o't» deb atalgan. Buning ortidan XKP Pekin shahar komiteta raxbarlariga va XKP MK tashviqot bo'limiga kirishi ayblovlar bo'ldi. 1966 yilning may oyida XKP MK siyosiy byurosining kengaytirilgan majlisida Mao szedunning «Madaniy inqilob» xaqidagi asosiy g'oyalari bayon qilingan axboroti tinglandi, undan keyin partiya, xukumat va armiyaning bir qator oliy raxbarlari keskin tanqid ostiga olindi, keyin esa o'z lavozimlaridan ozod xam qilindi. Shuningdek, Maoning sobiq, kotibi Chen Bod boshchiligida madaniy ishlari bo'yicha gurux (MIG) tashkil kilindi. Maoning xotini szyan sin va Shanxay shaxar komitetining kotibi Chjan Chunsyaolar uning o'rinbosarlari bo'ldilar, XKP MK kotibi, davlat xavfsizlik organlarining raxbari Kan Shen gurux maslaxatchisi bo'ldi. Asta-sekin MIG siyosiy byuroning xamda Kotibiatning o'rnini bosa boshladi va Maoning xarakatlari bilan «madaniy inqilob»ning shtabiga aylandi. Partiyadagi muxolifat kuchlarni yengish uchun Mao szedun va uning tarafdorlari siyosiy yetuk bo'lmagan yoshlardan foydalandilar, ulardan xunveybinlarning xujumkor otryadi – «qizil qo'riqchilar»ni tuzdilar (birinchi xunveybinlar 1966 yil may oyining oxirlarida Pekinning sinxua universiteta kirshidagi o'rtas maktabda paydo bo'lgan). Xunveybin larning birinchi manifestida shunday devilgandi: «Biz qizil xokimiyatni, partiya MKni ximoya qiluvchi kurikdildarmiz. Rais Mao bizning suyanchig'imiz. Butun insoniyatni ozod qilish bizning majburiyatimizdir. Mao szedunning g'oyalari bizning barcha ishlarimizda eng yuksak ko'rsatmalardir. Biz qasamyod qilamizki, MKning ximoyasi uchun, buyuk doxiy Rais Maoning ximoyasi uchun biz hech o'ylanib o'tirmasdan, so'nggi tomchi qonimizni ham beramiz, madaniy inqilobni qat'iyat bilan oxirigacha olib boramiz». Maoning tashabbusi bilan talabalarga «madaniy inqilob»ni olib borishga xech narsa xalaqit bermasligi uchun maktablarda va oliy o'quv yurtlarida o'qish to'xtatib qo'yildi. Ziyolilarni, partiya va komsomol a'zolarini ta'qib qilish boshlandi. Professorlarni, maktab o'qituvchilarini, fan va san'at arboblarni, keyin esa ko'zga ko'ringan partiya va davlat xizmatchilarini masxarabozlik «omma xukmiga» olib chiqardilar, go'yoki ularning «revizionistik xarakatlari» uchun, aslida esa, mamlakatdagi axvol xaqida mustaqil fikr yuritganligi uchun XXRning ichki va tashqi siyosati haqida tanqidiy fikrlar

bildirganligi uchun kaltakladilar, xo'rladilar. Davlat xavfsizlik ministrigining Pekin bo'limi bergan, unchalik to'liq, bo'lmagan axborotlariga ko'ra, 1966 yilning avgust-sentabrida faqat Pekinning o'zida xunveybinlar 1722 kishini o'ldirganlar, 33695 oilaning mol-mulkini musodara qilganlar, uylarida tintuv o'tkazib, poytaxtdan quvg'in qilganlar. 1966 yilning 3 oktabriga qadar shaharlardan «manfur» bo'lgan 397400 kishi badarg'a qilingan. Mamlakat ichkarisidagi terror tajovuzkorona siyosat bilan to'ldirildi. Mao Stalinning shaxsga sig'inish siyosatining fosh etilishiga, N. Xrushchevning «ilikdik» siyosatiga qat'iy qarshi chiqdi. 50-yillarning oxiridan boshlab Xitoy tashviqoti KPSS raxbarlarini buyuk davlatchilik shovinizmida, Xitoyning ichki ishlariga aralashishda va uning xarakatlarini nazorat ostiga olishga urinishlarda aybladi. Mao ta'kidlardiki, Xitoy xalqaro maydonda buyuk davlatchilik shovinizmi va gegemonizmning xar qanday ko'rinishlariga qarshi kurashmog'i kerak. Mao SSSR bilan 1950 yilgi do'stlik xaqdagi shartnomada ko'zda tutilgan. Xar qanday xamkorlikni yig'ishtira boshladi. Ularning Xitoyda bundan keyin turishlariga yo'l qo'yilmaslik maqsadida sovet mutaxassislariga qarshi kompaniya uyushtirildi. XXR raxbarlari sovet-xitoy chegarasidagi axvolni ataylab keskinlashtira boshladilar, SSSRga ochiqdan-ochiq XUDU- diy da'volar qildilar. 1969 yili ish Damansk yarimorolida va Semi palatinsk viloyatida oshkora qurolli to'tnashuvlargacha yetib bordi. 1966 yilning avgustida XKP MKning plenumi chaxirildi, unda ta'qiblarning qurboni bo'lgan ko'pgina MK a'zolari qatnasha olmadi. 5 avgustda shaxsan Maoning o'zi majlislar zalida o'zining «Shtablarga o't och!» degan daszibaosini yozdi va osib qo'ydi. U plenum qatnashchilariga «burjuaziya shtabi» mavjudligini e'lon qildi, markazdagi va joylardagi ko'pgina partiya raxbarlarini «burjuaziya diktaturasi»ni amalga oshirayotganlikda aybladi va markazdagi xamda joylardagi rahbar partiya organlari, xalq komitetlari, mehnatkashlarning ommaviy tashkilotlarini to'liq, vayron qilishni yoki faoliyatsizlantirishni, keyin esa yangi «inqlobiy» hokimiyat o'rganlari tuzishni nazarda tutib, «shtablarga o't ochish»ga chaqrdi. Plenumda partiya raxbariyati «qayta tashkil qilingani»dan keyin partiya MK raisining amaldagi beshta o'rinbosaridan bittasi – Mao szedunning «vorisi» deb xisoblangan mudofaa ministri Lin Byaogina qildi. Maoning xunveybinlar bilan «o'yn»lar olib borishi (uning xunveybinlar bilan yozishmalari, ular bilan uchrashuvlari nazarda tutiladi) natijasida va plenum vaqdidagi «shtablarga o't ochish» chaqiriqlaridan keyin xunveybinlarning beboshliklari plenumdan so'ng yanada kengrok, miqyosda ro'y bera boshladi. Xukumat o'rganlari, jamoat tashkilotlari, partiya komitetlarini vayron qilish boshlandi. Amalda xunveybinlar partiya va davlat tashkilotlaridan ustun qo'yilgan edi. Mamlakatdagi xayot izdan chiqqan, iqtisodga juda og'ir ziyon yetakzilgan, yuz minglab XKL a'zolari jazoga tortilgan, ziyolilarni ta'kib qilish kuchaygan edi. «Madaniy inqilob» yillarida, deyilgandi «To'rtlik» ishi (1981) o'rganlari, prokuratura, sud, armiya, tashviqot o'rganlarining raxbar xodimlaridan juda ko'pchiligi kuvg'in qilingan va yo'qotilgan». «To'rtlik»ning va Lin Byaoning xujjatlariga ko'ra, umumiy xisobda 727 mingdan ko'prok, kishi qurbon bo'lgan, ulardan 34 mingdan ortikrog'i «ulishga majbur qilingan». Rasmiy Xitoy xujjatlariga ko'ra, «madaniy inqilob» davomida jabr kurganlarning soni 100 millionga yaqin kishini tashkil qilgan. 1966 yilning dekabrda xunveybin otryadlari bilan bir qatorda, szaofan (isyonkor)lar otryadlari xam paydo bo'ldi. Ularga yosh, ko'p xollarda malakasiz bo'lgan ishchilar, xizmatchilar, o'kuvchilar jalb qilingan. Ular «madaniy inqilob»ni tashkilotlarda, korxonalarda olib borishlari, ishchilarning xunveybinlarga qarshiliklarini maxv etishlari kerak edi. Lekin ishchilar XKP komitetlarining

chakirikdari bilan o`z-o`zidan bezorilik qilayotgan xunveybin va szaofanlarga zarba berardilar, iqdisodiy axvollarining yaxshilanishlariga erishardilar, uz da`volarini bayon qilish uchun poytaxtga borardilar, ishlashni to`xtatardilar, ish tashlash e`lon qilardilar, talonchilar bilan jangga kirardilar. Partiya organlarining vayron qilinishiga mamlakatning ko`pgina oliy raxbarlari kelishib chiqdilar. «Madaniy inqilob» dushmanlari qarshiliklarini yengish uchun «xokimiyatni egallash» kampaniyasi amalga oshirildi. 1967 yilning yanvarida Shanxayning szaofanlari shahrida xokimiyatni qo`lga oldilar. Shundan so`ng, «xokimiyat qo`llarida bo`lgan va kapitalistik yo`ldan borayotganlardan xokimiyatni egallash» to`lqini butun Xitoy bo`ylab avj oldi. 1967 yilning yanvarida Pekinda 300 ta muassasa va tashkilotlarda Xokimiyat egallab olindi. Partiya komitetlariga va xokimiyat o`rganlariga ular XXR tuzilganidan buyon 17 yil davomida «kapitalizmni restavrasiya qilishga» uringanlik ayblovlari qo`yildi. Mavjud xa qarshiliklarni bostirgan va aloqa vositalari, omborlar, yashirin xujjatlarni saqlash va tarqatish, banklar, markaziy arxivlarni nazorat qiluvchi armiya yordamida «xokimiyatni egallash» amalga oshirildi. «Isyonkor»larga yordam berish uchun maxsus xarbiy qismlar ajratilgan edi, chunki armiyada xam xunveybinlar bilan szaofanlarning bezoriliklaridan norozilik mavjud edi. «Xokimiyatni egallash» rejasini tez amalga oshirishning imkoni bo`lmadi. Ishchilarning ish tashlashlari kengayib borar, xamma yerda szaofanlar bilan, shuningdek, xunveybinlar va szaofanlarning turli tashkilotlari o`rtasida xam kunli to`qnashuvlar bo`lib turardi. Xitoy tarixchilari shunday deb yozadilar: «Xitoy tartibsizliklar xukmron bo`lgan va terror boshqargan davlatga aylandi. Barcha darajadagi partiya va xukumat o`rganlari ishdan chaqirilgan edi. Raxbar kadrlar va bilim xamda tajribaga ega bo`lgan ziyolilar kuvg`inga duchor etildi». 1967 yilning yanvaridan boshlab maxalliy xokimiyatning antikonstitusion o`rganlari «revkom»lar tuzish boshlandi. Dastlabki paytlarda ularda xunveybinlar va szaofanlarning yetakchilari ko`pchilikni tashkil qildi va bu xolat partiya xodimlari va xarbiylarning noroziligiga sabab bo`ldi. Markazda va joylarda siyosiy kurash avj oldi, bir qator xududlarda xarbiy qismlar bilan xunveybinlar va szaofanlarning uyushmalari o`rtasida to`qnashuvlar kelib chikdi. 1971 yil yozining oxirida mamlakat amalda xarbiy nazorat ostiga olingan edi. 1968 yilning oktabrida bo`lib o`tgan XKP MK plenumida a`zolarning faqat uchdan bir qismigina qatnashdi, chunki qolganlari bu paytga kelib jazolangan edilar. Plenum «madaniy inqilob»ning barcha faoliyatini ma`qulladi, partiya safidan Lyu Shaotsini «toabad» o`chirdi, uni barcha lavozimlaridan ozod qildi, XKP yangi ustavi loyixasini ma`qulladi. XKPning IX s`ezdini chaqirishga qizgin tayyorgarlik boshlandi. Delegatlari saylanmagan, tayinlangan XKPning IX s`ezdi (1969 yil-ning apreli) mamlakatda 1965–1969 yillari amalga oshirilgan barcha xarakatlarni ma`qulladi va qonuniylashtirdi. S`ezdda Lin Byao qilgan asosiy ma`ruzada 1968 yilning baxorida boshlangan partiya tashkilotlari va davlat muassasalarini tozalashni davom ettirish lozimligiga kursatma berildi. Partiyaning butun tarixi «Mao szedun yo`li»ning turli xil «otishmachilar»ga qarshi kurashi sifatida bayon etilgan. IX s`ezd «uzluksiz inqilob»ga, urushga tayyorgarlik ko`rishga yo`nalishni ma`qulladi. Partiyaning s`ezd qabul qilgan yangi Ustavi 1956 yilgi Ustavdan farqli o`laroq partiyaning iqtisodiy va madaniy kurilish, xalqning xayotini yaxshilash, demokratiyani rivojlantirish sohasidagi vazifalarini aniqlab bermadi. XKP faoliyatining nazariy asosi deb «Mao szedun g`oyalari» e`lon qilindi. Ustavning dastur qismida Lin Byaoni Mao szedunning «vorisi» qilib tayinlash haqidagi modda xam mavjud edi. Absolyut monarxiyaga xos bo`lgan, XKP Ustaviga kiritilgan voris xaqidagi

modda xalqaro kommunistik xarakatdagi «novatorlik xodisasi» xisoblandi. Bu xaqiqatan xam novatorlik edi, lekin shu ma'nodaki, xalqaro kommunistik harakat paydo bo'lgan vaqtdan buyon bundayin g'alati voqea bo'lgan emas. U dunyo uchun qanday buyuk axamiyat kasb etganligini aytish qiyin, lekin u Xitoyning xalokat yoqasiga olib keldi. IX s'ezddan keyin o'z pozitsiyalarini saqlab qola olgan raxbarlardan ba'zilari mamlakat taraqqiyotining dolzarb extiyojlarini xisobga olib, Maodan ekstremistok ko'rsatmalarga tuzatishlar kiritilishini talab qildilar. Ularning tashabbuslari bilan 70-yillarning boshlaridan extiyotkorlik bilan rejalashtirish, mexnat bo'yicha taksimlash, moddiy rag'batlantirish elementlari kiritila boshlandi. Shuningdek, xalq xujaligini boshqarishni, ishlab chiqarishni tashkil qilishni yaxshilash bo'yicha xam choralar kabul qilindi. Madaniy xayot ustidan qattik nazorat avvalgidek saqlanib qolgan bo'lishiga qaramasdan, bu soxadagi siyosatda xam ba'zi bir o'zgarishlar yuz berdi. 1970–1971 yillarda Xitoy raxbariyati orasidagi yangi inqirozlarni aks ettiruvchi voqealar bo'lib o'tdi. 1970 yilning mart oyida Mao XXR Raisi lavozimini bekor qilish xaqida taklifini aytib, XXR Konstitusiyasini qayta ko'rib chiqish haqida qaror kabul qildi. Mudofaa ministri Lin Byao va madaniy inqilob ishlari bo'yicha raxbar Chen Boda uning fikriga qo'shilmadilar. 1972 yili Qo'shma Shtatlar bilan diplomatok va iqtisodiy munosabatlarni o'rnatish yo'liga kirib, Mao Pekinda o'sha Yili prezident R. Niksonni qabul qildi va dunyoni hayratga soldi. 1975 yilning yanvarida 10 yillik tanaffusdan keyin Mao parlament chaqirishga yo'l qo'ydi. XXRning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya o'zida o'zaro kelishuv natijalarini namoyon etardi: bir tomondan, unga 1965–1969 yillardagi ko'rsatmalar (shu jumladan urushga tayyorlanishga chaqiriq ham) kiritilgandi, boshqa tomondan u kommunalar a'zolarining tomoniga egalik xuquqinini mustahkamlandi, ishlab chiqarish brigadalarini (kommunalarni emas) xujalik xisobining asosiy birligi deb tan olardi, xalq, xayotining moddiy va ma'naviy darajasi muttasil oshirilishini, mexnatga xaq tulanishini nazarda tutardi. Yangi konstitutsiya qabul qilinganidan so'ng tez orada «madaniy inqilob» davrida yuqoriga kutarilganlar o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga yangidan urinib ko'rdilar. Ana shu maqsadda Maoning tashabbusi bilan 1974–1975 yillari «proletariat diktaturasi nazariyasini urganish» shiori ostida kampaniya o'tkazildi. Bu kampaniyaning asosiy vazifasi iqdisodiy rivojlanishga e'tiborni kuchaytirish, xalq xujaligini boshqarishning oqilona uslublarini qo'llash zarurligini ta'kidlayotgan XKP raxbarlariga qarshi kurash edi. Yangi siyosiy kampaniya davomida mexnatga yarasha taksimlash, tomorkaga ega bulish huquqlari, pul-tovar munosabatlari «burjuaziya huquqi» deb e'lon kilindi. Yangi kampaniya niqobi ostida ko'pgina sanoat korxonalarida va kommunalarda ishchilarning iqtisodiy manfaatlari cheklab qo'yilgandi. Bir qator xolatlarda moddiy rag'batlantirish choralari bekor qilingan, belgilangan vaqtdan ortik ishlatish qo'llanilgan, tomorkalari esa yo'q qilingan. Buning barchasi xalqning ommaviy noroziligini, ish tashlashlar va g'alayonlarni keltirib chikardi. Og'ir betoblikdan keyin 1976 yilning yanvarida XXR Davlat kengashi premeri Chjou Enlay vafot etdi. Usha yilning aprelida uning xotirasiga bag'ishlangan marosimlar paytida Pekinning markaziy maydoni Tyananmenda ommaviy namoyishlar yuz berdi. Bu Mao Szedunning mavqeiga kuchli zarba edi. Namoyish qatnashchilari uning xotini szyan sin va madaniy inqilob ishlari bo'yicha guruhning boshqa a'zolarining faoliyatlarini qoralardilar va ularning chetlatilishini talab qildilar. Bu voqealar jazolashlarning yangi to'lqinlarini keltirib chikardi. Den Syaopin barcha lavozimlaridan ozod qilindi, XXR Davlat kengashining premeri jamiyat xavfsizligi

ministri Xua Gofen buldi. Xitoyda Den Syaopinga va uning yaqin safdoshlariga yo`naltirilgan «madaniy inqilobning to`g`ri xulosalarini qayta ko`rib chiquvchi o`ng og`machilik epkini bilan kurashuvchi» yangi siyosiy kompaniya tashkil qilindi. «Xokimiyatga ega bo`lgan va kapitalistak yo`ldan borayotgan shaxslar» bilan kurashning yangi bosqchi boshlandi. Terror to`lqini 1976 yil 9 sentyabrda to`xtab qoldi. Mao Szedun o`ldi. Uning bulajak merosxo`rlari darhol jazolarga duchor qilindilar. szyan sin va uning «turtlar bandasi» deb atalgan eng yaqin safdoshlari Qamoqqa olindi. Maoning raislik lavozimiga sinchiklab tanlangan vorisi Chjao Gofenni, xukumat mu`tadillar nazorati ostiga o`tishi bilanoq, ichki partiya doirasidan haydab yubordilar. «Madaniy inqilob» o`zida qarama-qarshiliklarning ajoyib aralashmasini aks ettiradi. «Yuzta gul» xarakatidagidek uning xam asosiy tamoyillari xokimiyatga ega bo`lgan kishilarning sofligiga shubxa bilan karash va «norozilik XUKUKI» xoidasi edi. Lekin baribir, uning maqsadi shubxasiz, ommaviy ravishda «shaxsga siginish»ni Xamma joyda xoziru nozir, siymosi barcha jamoatchilik joylarida va xususiy uylarda savlat to`kib turgan Mao szedunning shaxsiga va goyalariga sadoqatni yaratish xamda mustahkamlash bo`lgan. «Kichkinagina qizil kitobcha» – rais Maoning fikrlari tuplamini («Sitatar») Xitoydagi xar bir erkakning, xar bir ayolning va xar bir bolaning qo`lida ko`rish mumkin edi. Shunday bo`lsa xam, Maoning vafotidan keyin bir necha yil o`tmasdanoq, Xitoy kommunistik partiyasi, Maoning inqilob tashabbuskori sifatidagi obro`yini o`rniga qo`ygan xolda, «madaniy inkilob»ni xaddan oshishlar uchun, shu jumladan Maoning shaxsiga sajda qilganlik uchun xam qoraladi. Mao szedunning asosiy asarlari «Mao szedunning tanlangan asarlari»da nashr qilingan. Uning boshqa ishlari «Mao szedunning tanlangan fikrlari», «Tanlangan xarbiy asarlari», «Mao szedunning qishloqdagi axvol haqidagi asarlari», «Mao szedunning jurnalistik sohasidagi tanlangan asarlari», «Mao szedunning tanlangan yozishmalari», «Mao szedunning she`rlari»da joylashtirilgan.

Mao szedun uch marta uylangan: birinchi bor Yan Kayxueyga (gomin- danchilar tomonidan 1930 Yili o`ldirilgan), ikkinchi marta – Xe szich- jenga va uchinchi marta szyan singa; uning ikki o`gli va ikki qizi bor edi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Панцов А. Мао Цзедун. Серия ЖЗЛ. – М.: Молодая гвардия, 2007.
2. Пейн Р. Ленин. Серия ЖЗЛ. – М.: Молодая гвардия, 2005.
3. Режим личной власти Сталина: К истории формирования. – М.: МГУ, 1989.
4. Ресков Б., Седов Г. Усман Юсупов. Серия ЖЗЛ. – М.: Молодая гвардия, 1976.
5. Рыбас С. Сталин. Серия ЖЗЛ. – М.: Молодая гвардия, 2009.
6. Советская историческая энциклопедия. ТТ. – 1– 16 – М.: «Советская Энциклопедия», 1961– 1975. 7. [www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru)

#### **FOYDALANILGAN ADABIYITLAR:**

1. XX asr: taqdirlarda aks etgan tarix / Sh. Ergashev, T. Bobomatov;– Toshkent: «O'zbekiston», 2015. – 488 b.

2. Giddens E. Sotsiologiya – “Sharq” nashriyoti. T.: 2002. 713-bet.
3. Mamlakat siyosatining asosini ishchilar sinfi boshkargan hamda ishchi va dehqonlar ittifoqi, davlat xalq demokratik diktatorlik tizimi va uning tim soli – Hulk Vakillari yigini, HKP rahbariyati ostida faoliyat olib borish kup partiyaviy tashkilot tashkil. [Den Syaopin. Zamonaviy Xitoyning asosiy savollari. M.: 1988].
4. Deng Syaopin Zamonaviy Xitoyning asosiy masalalari. M., 1988. S. 223-236.
5. Li Junji. Xitoy Kommunistik partiyasi haqida nimalarni bilasiz? Chet tillar nashri. Pekin. 2011. -102-bet.
6. Alvares, Ramon. Mao Tszedun, Tszantsi Sovetidan Nankinggacha. Vanaguardia.com saytidan olingan.
7. Cucchisi, Jennifer Lynn. 1927-1949 yillardagi Xitoy fuqarolar urushining sabablari va oqibatlari. Scholarship.shu. edudan tiklandi.
8. X asr: takdirlarda aks etgan tarixi / Sh.Ergashev, T.Bobomatov;- Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015. – 488 b.
9. XX asr: takdirlarda aks etgan tarix / Sh. Ergashev, T. Bobomatov;– Toshkent: «O'zbekiston», 2015. – 488 b.
10. Li Junji. Xitoy Kommunistik partiyasi haqida nimalarni bilasiz? Chet tillar nashri. Pekin. 2011. -102-bet.